



## Soʻzning semantik strukturasi va bogʻlanish imkoniyati

Xodjanazarova Nigoraxon Rustamjonovna

Andijon viloyati Izboskan tumani 45-umumtaʼim maktabi

ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada soʻzlarning semantik strukturasi, soʻzlarning bogʻlanish imkoniyati va tilshunoslarning shu haqdagi qarashlari tahlil etildi.

**Kalit soʻzlar:** semantika, lingvistika, semantik struktura, semantik maydon, semiotika, fonologik, nomlash, denotativ, nominativ, semema, konnotatsiya, uslubiy boʻyoq, xoslanish.

Hozirgi davrda semantika butun dunyo tilshunoslarining diqqatini oʻziga tortmoqda. Semantikasiz tilning tabiati va qonuniyatlari, vazifasi va rivojlanishi, uning inson ongi va tafakkuri, tabiati va qonuniyatlari, vazifasi va rivojlanishi, uning inson ongi va tafakkuri, tabiati va qonuniyatlari, obyektiv olam bilan bogʻlanishlari mukammal tasnif etilmaydi. Shu sababli hozir barcha tillarda tilning semantic nuqtasi nazardan analiz qilishga katta eʼtibor berilmoqda va semasiologiya fan sifatida rivojlanmoqda. Demak, semantika semiotikaning maʼno oʻrganuvchi boʻlimi boʻlib, belgi va ularning talqini oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni tekshiradi.

Soʻzlarning semantik strukturasi shu soʻzga xos maʼnodan iborat boʻladi. Soʻzlarning semantik strukturasi va u bilan bogʻliq hodisalarni oʻrganuvchi soha semasiologiya deyiladi. Har qanday soʻz paydo boʻlishidayoq oʻz shakli va maʼnosiga ega boʻladi. Bir soʻz bilan aytganda, har qanday soʻz shakl va maʼno butunligiga egadir.

Soʻz oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va funksiyalarda qoʻllanadigan eng kichik asosiy til (nutq) birligi.<sup>14</sup>

<sup>14</sup> Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. -T., 1985, 81–b



Soʻz tovush tomoni bilan fonetikaning; leksik birlik (leksema) sifatida leksikologiyaning; turli grammatik maʼnolarni ifodalashi va shu maʼnolarni ifodalovchi formalarga egaligi bilan morfologiyaning; soʻz birikmasi va gap qurilishida material asos boʻlib xizmat qilishi bilan sintaksisning oʻrganish obʼyekti hisoblanadi.

Demak, soʻz grammatik qurilishining bazasi boʻlib, u tilning leksikasida ham, grammatikasida ham eng asosiy birlik sanaladi. Soʻz forma (tovush formasi) va mazmun birligiga ega boʻlib, semantik va grammatik yaxlitlikni oʻzida mujassamlashtiruvchi birlikdir. U til strukturasi formal va maʼno jihati bilan toʻrt bosqichda ilmiy tadqiq etiladi:

- 1) fonologik jihatdan soʻzning fonemalar sostavi va uning aksent(urgʻu strukturasi) oʻrganiladi;
- 2) morfologik jihatdan soʻzning morfemik tuzilishi ilmiy analiz qilinadi;
- 3) leksik jihatdan soʻzning atama birlik ekanligi, yani nom qoʻyish bilan bogʻliq tomoni qaraladi;
- 4) semantik jihatdan soʻzning turli maʼno tomonlari tadqiq etiladi.

Keyingi paytlarda yuzaga kelgan semantic nazariyalarning deyarli hammasida tilning lugʻat sostavi oʻziga xos leksik-semantik sistema hosil etishi qayd etiladi. Bu nuqtai nazardan qaralsa, tilning leksik-semantik sistemasi kichik-kichik mikrosistemalardan, ular ham oʻz navbatida yana ham kichikroq sistemalardan tashkil topadi. Demak, tilning sostavi ham iyerarxiya xarakteridagi kichik sistemalar birligidan iborat ekan degan xulosaga kelamiz. Bu sistemaning asosiy obyekti soʻz hisoblanadi. Soʻz – tilning gʻoyat murakkab birligi boʻlib, semantik uchburchakni tashkil qiladi.

Maʼlumki, semantik uchburchak uch qismni – denotat (obyektiv borliqdagi narsa), signifikat (maʼno), eksponent (fonetik soʻz) ni qamrab oladi.

Har qanday nominativ birlik borliqdagi narsa-hodisalar, harakat-hoʻlatlarni nomlaydi. Demak, soʻzning maʼno, mazmun jihati uning semantik strukturasi deb ataladi. Soʻzning semantik strukturasi maʼno va qoʻshimcha maʼno oʻttenkalaridan iborat strukturadir.



Soʻzning semantik strukturasi deganda soʻzning maʼno qurilishida quyidagi semalarning maʼlum tartibda joylanishi nazarda tutiladi. Bular quyidagilar:

1. Atash (nomlash, denotativ, nominativ) semalari.
2. Ifoda (konnotatsiya, uslubiy boʻyoq, xoslanish) semalari.
3. Vazifa semalari.

Har bir semema tarkibida shunday semalar mavjuddir. Ammo ularning muayyan semema tarkibidagi oʻrni, ahamiyati, mavqei turlicha boʻladi. Leksema semalarining oʻzaro dialektik bogʻlanishda va teskari mutanosiblikda boʻladi. Ammo, baʼzi semalarning kuchayishi aniqlanishi va boʻrttirilishi va boshqa semalarning zaiflashishiga va kuchsizlanishiga olib keladi. Jumladan, mustaqil leksema semalarida atash semalari kuchayganda, ifoda va vazifa semalari zaiflashadi. Yordamchi leksemalarda ifoda va atash semalari zaiflashganda vazifa semalari kuchayadi.

Sememalar tarkibidagi turlicha semalarning oʻzaro munosabati masalasi oʻzbek semasiologiyasi fanining oʻrganishi zarur boʻlgan dolzarb masalalardandir. Oʻzbek tilshunosligida baʼzi olimlar semema deganda leksik maʼnoning oʻzini tushunishadi, baʼzi olimlar leksik maʼnodan tashqari stilistik boʻyoq, nutqiy belgi kabilarni ham tushunishadi. Aslida esa semema leksema kabi mustaqil bir element u faqat leksemaning mazmun planini qoplash uchun yaratilmagan. Hatto sememalar chiziqcha asosida ham alohida-alohida leksik maʼno yotadi. Ikki semaning bir leksemaga birikishi har biriga xos sema tarkibida umumiy semaning mavjudligi tufaylidir.

Tilda leksemalarning birika olishi yoki birika olmasligi masalasi ularning maʼnolari oʻrtasidagi aloqalarga bogʻliq. Masalan, “qizil“ va “qarmoq“ leksemalarining birikishi mumkin emas. Chunki ularning sememalari oʻrtasida hech qanday aloqa yoʻq, biroq “tez qarmoq” deyish mumkin, chunki harakat bajarilishi holati bilan munosabat aniq.

Bundan xulosa qilish mumkinki, nutqda soʻzlar faqatgina grammatik jihatdan bogʻlanibgina qolmay, mazmuniy jihatdan ham bogʻlanishi shart. Tildagi soʻzlarning barchasi ham oʻzaro maʼno jihatdan bogʻlana olmasligini quyidagi misollar bilan koʻrish mumkin. “Temir” va “sekin” leksemalari maʼnolari oʻrtasida aloqa yoʻqligi koʻrinib



turibdi. Lekin “temir” so‘zi “qattiq”, “element”, “sovuq”, “intizom”, “stul”, “ba’zi narsa nomlari” kabi so‘zlar bilan aloqalanishi mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. Talqin, 2005.
2. I. Qo‘chqortoyev. So‘z ma’nosi va uning valentligi. O‘zbekiston SSR, “Fan”; Toshkent. 1977
3. Ҳожиев А. Семасиология.// Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
4. [uz.wikipedia.org](https://uz.wikipedia.org)
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>